



### ALISHER NAVOIYNING RAMAL BAHRIDA YOZILGAN G'AZALLAR BADIYYATI

Saidg'oziyeva Gulsanam Furqat qizi  
Renessans ta'lim universiteti talabasi

*Ilmiy Rahbar: T.R.Dusanova*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.17933429>

**Annotatsiya:** Maqolada Alisher Navoiyning ramal bahrinda yozilgan g'azallari tahlilga tortilgan. Dilnavoz Yusupovning fikrlari iqtibos sifatida olingan. Ramal bahrining turli shakllariga misollar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Alisher Navoiy, ramal, bahr, vazn, g'azal.

**Аннотация:** В статье рассматриваются газели Алишера Навои, написанные в размере рамаль. Приведены мнения Дильнавоз Юсуповой в виде цитат. Также даны примеры различных форм размера рамаль.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, рамаль, размер, стихотворный размер, газель.

**Annotation:** The article examines Alisher Navoi's ghazals composed in the ramal poetic meter. Opinions by Dilnavoz Yusupova are quoted. Examples of various forms of the ramal meter are also provided.

**Keywords:** Alisher Navoi, ramal, poetic meter, rhythmical pattern, ghazal.

#### **Kirish.**

Alisher Navoiy- o'zbek mumtoz adabiyoting eng yirik siymosi, nafaqat o'z davrining, balki jahon adabiyoti tarixining ham zabardast vakilidir. Bu mumtoz siymo Maqsuda Shayxzoda tomonidan "G'azal mulkingning sultoni" deya e'tirof etgan. Uning g'azallari Sharq she'riyati badiiyatining eng yuksak namunalaridan biri sanaladi.

Istiqlol yillarida olimlarimiz Alisher Navoiy merosini to'liq, hech qanday qisqartmalarsiz keng o'quvchilar ommasiga yetkazib, shuning bilan birga bu bebaho xazinaning mazmun –mohiyatini tushuntirish yo'lida ham ancha salmoqli ishlarni amalga oshirdilar [Davlatov O, 2021.7]

Manbalarda yozilishicha, Sharq mumtoz poetikasining asosini ilmlar uchligi tashkil etadi. Bular: ilmi aruz, ilmi badi' hamda ilmi qofiyadir. Adabiyotimiz tarixida bu uch ilm birgalikda mumtoz she'ning nafosati va shoirning salohiyatini belgilovchi mezon hisoblangan. Navoiy o'z ijodida bu ilmlar uchligidan o'rni bilan foydalangan. Ayniqsa, aruzning turli bahrlarini mohirlik bilan qo'llagan, ulardan biri ramal bahridir.

#### **Asosiy qism.**



Ramal bahrida yozilgan gʻazallar oʻzining lirizimi va ruhiy nozikliklari bilan ajralib turadi. Bu bahr koʻpincha muhabbat, sadoqat, gʻam va hijron kabi nozik kechinmalarni ifodalash uchun qulay hisoblanadi. Shu sababli Navoiy ramal bahrini asosan orifona va oshiqona mazmundagi gʻazallarida qoʻllagan.

Ramal bahridagi birinchi shakl ramali musammani solim deb ataladi. Yaʼni foilotun rukni mazkur baytda 8 marta hech qanday oʻzgarishlarsiz, toʻliq holda takrorlanadi.

Taqtiiy quyidagicha:

-V--/-V--/-V--/-V -

-V--/-V--/-V--/-V --

Aruzshunos olim Dilnavoz Yusupova “Aruz va mumtoz poetika asoslari” kitobida shunday yozadi: “Ammo bunday vazn xush ohangga ega emas, shu sababli mumtoz adabiyotimizda ushbu vaznda deyarli sheʼr bitilmagan. Hazrat Navoiy bu vaznni tajribadan oʻtkazish maqsadida bir gʻazal yozgan boʻlib, u “Navodir ushshabob” devonidan 199-raqam ostida oʻrin olgan. Gʻazal matlaʼsi quyidagicha:

Ey jalol-u rahmatingdin gar zalil-u, gar muazzaz,

Safhayi kavnayn oʻlub, oting tarozidin mutarraz. [Yusupova D, 2018. 30]

Olimaning fikrlariga qaraganda, Ramali musammani mahzuf vazni turkiy sheʼriyatda eng koʻp istifoda etilgan boʻlib, “Xazoyin ul-maoniy”dagi 2600 gʻazaldan 1101 tasi ushbu oʻlchovda bitilgan.

Orazin yopqach, koʻzumdin sochilur har lahza yosh,

Boʻylakim paydo boʻlur yulduz, nihon boʻlgʻoch quyosh.

Ramali musammani mahzuf ( foilotun foilotun foilotun foilun ) bahrida yozilgan ushbu bayt soʻzlarining taqteʼi quyidagicha:

- V - -/ - V - -/ - V - -/ - V -

- V - -/ - V - -/ - V - -/ - V -

O-ra-zin-yop/qoch-koʻ-zum-din/so-chi-lur-har/lah-za-yosh

Fo-i- lo- tun / fo - i - lo - tun/fo - i - lo - tun /fo -i - lun

Boʻy-la-kim-pay/do-boʻ-lur-yul/duz-ni-hon-boʻl/gʻoch-qu-yosh

Fo - i - lo - tun/fo - i - lo - tun/fo - i - lo - tun / fo - i - lun

Koʻrinadiki, vazn paradigmasiga tushirish uchun yopqoch, paydo, yulduz, boʻlgʻoch soʻzlarini avvalgi boʻgʻinlarini oʻzidan oldingi soʻzga qoʻshib talaffuz qilish kerak. Ammo bunda talaffuz tabiiy va ravon chiqishi, sunʼiylik yuz bermasligi kerak.

“Kelmadi” radifli gʻazal. Gʻazal oʻn besh hijodan iborat boʻlib, oxirgi rukni zihof, yaʼni oʻzgarishga uchragan.

Gʻazal matlaʼsi quyidagicha:



Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro' kelmadi,

- V - -/ - V - -/ - V - -/ - V -

Ko'zlarimg'a kecha tong otguncha uyqu kelmadi.

- V - -/ - V - -/ - V - -/ - V -

Vazni ramali musammani mahzuf (foilotun,foilotun,foilotun,foilun).

Ko'rinadiki, g'azal boshidan oxirigacha bir xil vaznda yozilgan.

Maqta': Ey Navoiy, boda birla xurram et ko'ngul uyin,

Ne uchunkim boda kelgan uyga qayg'u kelmadi.

Qofiyadosh so'zlar:

Gulro' (tojikcha), uyqu, Badxo' (tojikcha) qorong'u, Otro' (tojikcha) qayg'u.

Radifi:kelmadi

Oshiqona g'azal bo'lib munojot ham deyiladi. G'azalning har bir baytida tazod san'ati qo'llangan.

### **Xulosa.**

Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" chordevonidan o'rin olgan mashhur "Ashraquat min aksi...", "Shahr bir oy...", "Mubtalo bo'ldum sanga", "Ne navo so'z aylagay..." kabi mingdan ortiq g'azallari ham ramal bahrida yozilgan. Ko'pchiligi ravon va musiqaga o'ng'ayligi uchun hofizlarimiz tomonidan kuyga solinib ijro etilgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. Ж-1: "Xazoyin ul-maoniy". - Т.: Ф. Гулом номидаги НМИУ, 2011. Б. 804.
2. D.Yusupova . Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. Toshkent. 2018. B-204.
3. Davlatov O.Ma'nolar xazinasi. Toshkent. 2021. Б. 329.